

## **O'QUVCHILAR O'RTASIDA ZO'RAVONLIKLER VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI**

*Rizaqulova Mohira Abdulxayevna*

*Farg'onasi viloyati Uchko'prik tuman 20-umumiy o'rta talim maktabi  
psixologi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar o'rtasida uchraydigan nisbatan zo'ravonlik turlari, ularning sabablari, psixologik va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, zo'ravonlikning ta'lim muhitiga va o'quvchilar shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siri yoritiladi. Tadqiqot davomida zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan pedagogik, psixologik va huquqiy chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajribalar asosida zo'ravonlikni kamaytirishga oid tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'quvchilar, zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik, maktab muhiti, profilaktika, psixologik xizmat, ijtimoiy omillar, inklyuziv yondashuv.

Zamonaviy maktablarda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning sog'lom psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Afsuski, so'nggi yillarda maktab muhitida o'quvchilar o'rtasida turli ko'rinishdagi zo'ravonlik holatlari tez-tez uchramoqda. Bu holat nafaqat o'quvchilarning psixologik salomatligiga, balki butun ta'lim muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, zo'ravonlikning oldini olish dolzarb ijtimoiy va pedagogik vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs va jamiyat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ayniqsa yoshlar va o'quvchi-yoshlarning qobiliyatları, iste'dodlari hamda ichki salohiyatlarini chuqr o'rganish va ulardan samarali foydalananish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Har bir inson hayotga kelgach, avvalo, ota-onasi uning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishini





istaydi. Shaxs ulg‘aygan sari o‘z salohiyati, qiziqishlari va imkoniyatlariga tayangan holda, jamiyatda o‘z o‘rnini topib, Vatanga foydali inson sifatida shakllanadi.

Ammo bugungi globallashuv va informatsion bosimlar zamonida jamiyatda turli salbiy holatlar, xususan, zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari tobora ko‘proq kuzatilmoxda. Zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bu – jismoniy zo‘ravonlik bo‘lib, u odatda tan jarohati yetkazish, ba’zida hatto o‘limga olib boruvchi og‘ir oqibatlar bilan namoyon bo‘ladi

Ikkinchi keng tarqalgan ko‘rinish – jinsiy zo‘ravonlik bo‘lib, bu boshqa shaxsni jinsiy munosabatga majburlash, unga qarshi tajovuz qilish kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagи zo‘ravonlik ko‘pincha sir tutiladi va jabrlanuvchining ruhiy holatiga chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ruhiy (hissiy, ma’naviy) zo‘ravonlik esa og‘zaki haqoratlar, tahdidlar, pastkashlik bilan namoyon bo‘ladi. Bunday bosim ostida yashovchi odamlar o‘zini qadrsiz his qilib, depressiya, xavotir va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik holatlariga duch keladilar. Bu esa ularni axloqiy tamoyillaridan chekinishga, ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashishga olib kelishi mumkin.

Siyosiy zo‘ravonlik esa odamlarga o‘z irodasiga zid ravishda siyosiy qarashlarni qabul qildirish, hokimiyatni majburlab qo‘llab-quvvatlash kabi usullar bilan kechadi. Bu holat avtoritar boshqaruv shakllarini kuchaytiradi va ba’zida genotsid holatlarigacha olib borishi mumkin.

Oilaviy zo‘ravonlik, ya’ni biz asosiy e’tibor qaratmoqchi bo‘lgan zo‘ravonlik turi esa – eng xavfli va keng tarqalgan ijtimoiy muammolardan biridir. Bu holatda turmush o‘rtoqlar yoki boshqa yaqin qarindoshlar bir-biriga jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo‘ravonlik qiladi. Bu turdagи bosim va zo‘ravonlik ostida ko‘pincha ayollar, bolalar va zaif a’zolar qoladi. Oilaviy zo‘ravonlikning asosiy belgilaridan biri uning tizimli, doimiy va takrorlanuvchi xarakterga ega bo‘lishidir. Ya’ni bu holat oddiy, tasodifiy kelishmovchilikdan farqli o‘laroq, maqsadli tarzda doimiy takrorlanib turadigan bosim shaklidir.



Bundan tashqari, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ham keng tarqalgan bo‘lib, u jismoniy jazolash, ruhiy bosim o‘tkazish, jinsiy tajovuz ko‘rsatish kabi shakllarda bo‘lishi mumkin. Bunday shafqatsiz munosabatlar bola psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uning sog‘lom rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yana bir dolzarb masala – axborot vositalaridagi zo‘ravonlikdir. Televizion ko‘rsatuvalar, filmlar, internetdagi kontentlar orqali yosh ongiga zo‘ravonlik g‘oyalari singdiriladi. Bu esa ularda real hayotda ham tajovuzkorlikni qabul qilish, unga ergashish xatti-harakatlarini shakllantirishi mumkin.

Shuningdek, qurolli zo‘ravonlik holatlari ham mavjud bo‘lib, bunda odamlar har qanday qurol vositasi orqali tahdid ostida qoladi. Bu esa jamiyatdagi xavfsizlik darajasini pasaytiradi.

Ya’ni, oiladagi zo‘ravonlik – bu jamiyat barqarorligiga putur yetkazuvchi, shaxsiy erkinlik va huquqlarga tahdid soluvchi jiddiy muammo bo‘lib, unga qarshi kurashish uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy mexanizmlar bирgalikda ishga tushirilishi zarur.

Oila – jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli, undagi sog‘lom muhitni ta’minalash orqali butun jamiyat salomatligiga hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, zo‘ravonlik – bu bir shaxs tomonidan boshqasiga nisbatan jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy bosim o‘tkazish holatidir.

Shuni ham aytish joizki, zo‘ravonlikning istalgan turidan jabr ko‘rgan bola zo‘ravonlik qurbanli sifatida e’tirof etiladi. U quyidagi huquqlarga ega:

- O‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilgani yoki bunday tahdid bo‘lgani haqida davlat organlari, tashkilotlar yoki sudga bevosita yoki qonuniy vakili orqali murojaat qilish;
- Bepul huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa ko‘mak turlarini, shu jumladan ishonch telefonlari orqali ko‘rsatiladigan yordamni olish;
- Himoya orderi so‘rab davlat organlariga murojaat qilish, agar ushbu order shartlari buzilsa, bu haqida xabar berish;



- Zo'ravonlik tufayli yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uchun tovon undirish.
- Bolaning huquqlari ota-onasi, vasiy yoki homiysi, vasiylik va homiylik organlari, prokuror yoki sud tomonidan himoya qilinadi.

Zo'ravonlikning oldini olishda eng samarali choralaridan biri bu – psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini tizimli ravishda tashkil etishdir. Bu borada quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Oilaviy muhitda psixoprofilaktika tadbirlarini yo'lga qo'yish-bu yo'nalishda ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish, ularni psixologik bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish muhim sanaladi. Shuningdek, oilada sog'lom, mehrga asoslangan va konstruktiv muloqotga tayanuvchi munosabatlarni shakllantirish zarur.

Maktab muhitida pedagogik monitoringni amalga oshirish-bu orqali o'qituvchilar, sinf rahbarlari va maktab psixologlari o'quvchilarning hissiy holati va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni kuzatib boradi. Natijada, xavf guruhiga mansub o'smirlar erta aniqlanib, ularga individual yondashuv asosida zaruriy yordam ko'rsatiladi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonlik holatlari nafaqat alohida shaxslar uchun, balki butun ta'lim muassasasi va jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, bu muammoni hal qilishga kompleks yondashuv talab etiladi. Maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish, o'qituvchi va psixologlarning hamkorligi, oilaning faol ishtiroki – zo'ravonlikning oldini olishda muhim omillardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova N.M. "Bola va zo'ravonlik: psixologik tahlil" – Toshkent, 2020.
2. Raximova M.M. "Pedagogik konfliktologiya" – Toshkent, 2019.
3. Kazimova Z. "Maktab psixologiyasida zamonaviy yondashuvlar" – Samarqand, 2023.

<sup>1</sup> Kazimova Z. "Maktab psixologiyasida zamonaviy yondashuvlar" – Samarqand, 2023.